

## Ulug‘Bekning Yoshlik Yillari

*Sobirov Jamshidbek<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada buyuk Sohibqiron Amir Temurning nabirasi, yetuk olim, adolatli hukmdor, ilm - fan rahnamosi hisoblanmish Mirzo Ulug‘bek haqida uning yoshligi, yoshlikdagi hukmdorlik faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mirzo Ulug‘bek, Sohibqiron, Temuriy hukmdor, astronom, matematik, davlat arbobi.

O‘rta Osiyo mintaqasida Sharq uyg ‘onish davri sifatida XIV-XV asrlar ham tilga olinadi. Ayni shu davrning yetuk namoyondalaridan biri bu shubhasiz Mirzo Ulug‘bekdir. Mirzo Ulug‘bek buyuk o‘zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. Sohibqiron Amir Temurning nabirasi. Temuriylar hukmdori Shohruxning o‘g‘li. Sohibqironning “besh yillik yurish”ida (1392—96) Iroqdagi Mordin qal‘asini qamal qilish chog‘ida Eron Ozarbayjonining Sultoniga shahrida tug‘ilgan. Temuriylar davri mashhur tarixnavisi Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat 12 qilganliklari to‘g‘risidagi xushxabarni yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal‘asi qamalini to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan to‘loymi bekor qiladi. Uning o‘z nabirasiga Muhammad Tarag‘ay va Ulug‘bek deb ism qo‘yganini ham munajjimlarning yuqorida bashorati bilan bog‘lash mumkin. Amir Temur Ulug‘bek tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Kastiliya qirolining Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning qayd etishicha, Ulug‘bek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan.

1404-yil Samarqandning Siyob (Obirahmat) arig‘i bo‘yida joylashgan Konigil mavzesida o‘tkazilgan tantanalarda Amir Temur oltita nabirasining (jumladan, Ulug‘bekning) nikoh to‘ylarini o‘tkazgan. To‘yda Sohibqiron Ulug‘bekka Toshkent, Sayram, Yangi (hozirgi Taroz), Ashpara va Mo‘g‘ulistonni to Xitoy hududigacha suyurg‘ol qilib bergan. Amir Temur O‘trorda vafot etgan chog‘da Ulug‘bek ham o‘sma yerda bol‘gan. Amir Temur vafotidan so‘ng Temuriylar o‘rtasida toju taxt uchun kurash boshlangan. O‘trordan qaytgan Shohrux farzandlari — Ulug‘bek va Ibrohim Sultonni amirlar poytaxt Samarqandga kiritmaydilar, ular Buxorodan panoh topishgan. Samarqand taxtini Amir Temurning nabirasi, Mironshohning o‘g‘li Xalil Sulton egallagan. Xurosonni boshqarib turgan Shohrux Ulug‘bekka dastlab Andxo‘y bilan Shibirg‘onni, keyinchalik Xurosonning Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni topshirgan. 1410-yili Shohrux Movarounnahrni o‘z tasarrufiga kiritgach, uni idora etishni Turkiston viloyati bilan birga Ulug‘bekka topshirib, Sohibqiron vasiyatini qayta tiklagan. Ulug‘bek yosh (15 yosh) bo‘lgani sababli amir Shohmalik unga homiy etib belgilangan. Lekin Shohmalikning raqibi — O‘trordagi Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongirning Hisordagi voliyları 1410-yil bahorida Ulug‘bek va Shohmalikka qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohrux ishtirokida bo‘lgan jangda Shohmalik va Ulug‘bek g‘alaba qilganlar. 1411- yil sentabrdha Shohrux Samarqandga kelib, Shohmalikni o‘zi bilan Hirota olib 13 ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413). Shu vaqtдан boshlab Ulug‘bek Movarounnahrni mustaqil idora etishga kirishgan. Shohrux Movarounnahrda boshqa temuriy shahzodalarga ham mulk ajratgan edi. Chunonchi, Hisori Shodmonni temuriy shahzoda, Amir Temurning nabirasi Muhammad Sultonning o‘g‘li Muhammad Jahongir Mirzoga, O‘zgand viloyatini temuriy shahzoda, Umarshayxning o‘g‘li Amirak Ahmadga suyurg‘ol qilgan edi. Biroq ular Ulug‘bekka tobe edilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Ahmedov. Ulug‘bek (Esse). T., 1989
2. A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar sultanati. Tarixiy ocherk. T., 1996
3. B.Shalotonin. Gorod na beregu Zarafshana. «Kizilkum», 1999
4. F.Qosimov. Temuriylar davrida Buxoro. Buxoro, 1996
5. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. T., «Cho‘lpon» nashriyoti, 1993
6. T. S. Saidqulov “O‘rta Osiyo tarixining tarixshunosligidan lavhalar”, Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1993.

<sup>1</sup> Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi